ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЙ И РАЗВИТИЯ
THE JOURNAL OF RESEARCH AND DEVELOPMENT
ТАДҚИҚОТ ВА ТАРАҚҚИЁТ ЖУРНАЛИ
ISSN: 3030-3281. Volume I, Issue-2, (February) 2024
Journal homepage: https://imfaktor.com/index.php/tjrd

SAIDOVA Ruxshona Nishonovna
O‘zDJTU
magistranti

Ilmiy rahbar: **BAXRONOVA Dilrabo Keldiyorovna**

STILISTIK VOSITALARNING BADIIY MATNDA FUNKSIONAL SEMANTIK JIHATDAN QO‘LLANILISHI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada stilistik vositalarning badiiy matndagi tahlili funksional semantik jihatdan o‘rganiladi. Matnlarda stilistik vositalarning qo‘llanilishiga ahamiyat beriladi. Shuningdek, u o‘zbek adabiyoti va jahon adabiyotida stilistik vositalarning tasnifi bilan bir nechta misollar beriladi.

Kalit so‘zi: lingvistik vosita, badiiy-tasviriy vositalar, ma’no ko‘chish turlari, funksional tahlil.

ANNOTATION

This article concerns with stylistic devices’ functional semantic features in the literary text. It is stated the usage of stylistic devices in the text. It also contributes some classification of stylistic devices in uzbek and world literature.

Key words: linguistic means, literary-figurative means, types of transferring meaning; functional analysis.

Stilistik vositalarni, avvalo, funksional semantik jihatdan tahlil qilishdan oldin stilistika so‘zini tadqiq qilishimiz lozim. “Akademik V.V. Vinogradov stilistika bahsida bir-biri bilan aloqador, lekin vazifalari jihatdan farqlanadigan 3 ta tekshirish aspektini ko‘rsatish zarurligini aytadi. Ular quyidagilar:

1. Tilning funksional stillarini o‘rganuvchi stilistika. Bu struktural stilistika deb ham yuritiladi. Struktural stilistikaning vazifasi uning struktural elementlari bo‘lgan rasmiy, ilmiy, publitsistik badiiy stillarning o‘ziga xos xususiyatlari va ifoda vositalarini ko‘rsatishdir. Ya’ni bu tilning vazifadosh stillarini o‘rganuvchi stilistika.

2. Turli janrlarning semantik, ekspressiv-stilistik ma’no va tez ta’sir qilish tomonlarini hamda og‘zaki va yozma nutq orasidagi farqni tekshiruvchi nutq stilistikasi. Uning vazifasi tilning barcha stillar tizimi bilan birga yozma va og‘zaki shakllari, adabiy va so‘zlashuv nutqi ko‘rinishlarini tekshiradi. U til birliklaridan qaysi biri yozma va og‘zaki nutqda ko‘proq ishlatilishi, fikr ifodalashda til vositalarining to‘g‘ri tanlangan yoki noto‘g‘ri olinganligi, shu vositalarning o‘rnida ishlatish yo‘llarini o‘rganadi.

3. Adabiy yo‘nalishlar, badiiy asar hamda yozuvchi stilini tadqiq etadigan badiiy adabiyot stilistikasi”. Ushbu jihatlarni inobatga olgan holda stilistik vositalar ham akademik V.V. Vinogradovning tekshirish aspektidan birinchi aspektga ko‘ra, ya’ni struktural stilistik jihatidan foydalanish jihati har xil bo‘ladi. Masalan, struktural stilistik nuqtayi nazaridan, asosan, badiiy adabiyotda ko‘proq foydalaniladi.

Ilmiy stilning muhim xususiyati deb shuni ko‘rsatish lozimki, ilmiy bayon umumiy va mavhum bo‘lishiga qaramasdan, mantiqiylik yaqqol sezilib turadi. Bundan ikkinchi xususiyat, ya’ni bu stilda qo‘llanadigan lisoniy birliklarning ishlatilish darajasi va stilga xos bo‘yog‘i kelib chiqadi. Ilmiy stilning tipik bo‘lgan xususiyatlari quyidagicha:

1. Terminlarning qo‘llanilishi;
2. Bir ma’nolilik;
3. Obrazlilikning deyarli bo‘lmasligi;
4. Yashirin emotsionallik;
5. Bayonning obyektivligi;
6. Bayonning quruq va qat’iyligi.

Ushbu xususiyatlarga ahamiyat bergan holda ilmiy uslubda emotsionallik hamda stilistik vositalarning qo‘llanilishi fan sohalariga bog‘liq sanaladi. Masalan, dumli yulduz, geografik burun, qizil tuproq, dengiz marjonlari, uchar yulduz kabilar. Ushbu keltirilgan misollarda stilistik vositalardan asosan metafora hamda metonimiya stilistik vositalari qo‘llanilgan. Ya’ni, dumli yulduz hamda geografik burun-metonimiya (aloqadorlik asosida ma’no ko‘chish) sanalsa, qizil tuproq, dengiz marjonlari, uchar yulduz – metaforadir.

Publitsistik uslub, ya’ni ommaviy nutq uslubining o‘ziga xosligi uning hissiyotga boyligi hamda ta’sirchanligidir. Bu xususiyat asosiy e’tiborni nimaga qaratish kerakliligini uqtirishi bilan birga nutqning tushunarli va esda qolarli bo‘lishiga ta’sir etadi. Bu uslubning ilmiy uslubdan farqli ravishda turli xildagi stilistik vositalardan foydalaniladi va bu uslubda so‘z tanlash bu stilning janr turlariga ko‘ra belgilanadi. Anafora, epifora, epitet, o‘xshatish, jonlantirish, ironiya, apostrofa kabi stilistik vositalar shular jumlasidandir.

“O‘zbek xalqi, o‘z pahlavon, botir otalari bilan bir qatorda jasur, qo‘rqmas, balolarning ko‘ziga tik qaray oluvchi, o‘z onalari bilan ham faxrlana oladi. Bu onalar barcha qarindosh xalqlar uchun onadir, yoki xoladir, yoki ammadir”. G‘afur G‘ulomning “Quyoshni qutlab” maqolasidan.

Nutq uslublarining tekshirish aspekti bo‘yicha tahlil qilgan bo‘lsak, ularni endi ko‘rinishlari bo‘yicha guruhlarga ajratamiz. Ya’ni nutq uslublari 2 xil ko‘rinishga ega.

1. Nutq stilistikasi. Bu tilning vazifadosh shakllari deb ham yuritiladi. Bunga so‘zlashuv stili, rasmiy stil, ilmiy stil, publitsistik stil va badiiy stil kiradi.

Bu uslublarda stilistik vositalarning ko‘pgina turlaridan foydalana olamiz. Masalan, so‘zlashuv uslubida “Men senga yuz martalab aytdim” sintaktik birligi giperbolaga misol bo‘lsa, badiiy uslubda qo‘llanilgan “Kallasi kapaday” birikmasi bir vaqtning o‘zida ham bo‘rttirish, ham metaforaga misol bo‘la oladi.

2. Lingvistik, ya’ni til stilistikasi. Uning turlari:

a. Fonetik stilistika
b. Leksik stilistika
d. Grammatik stilistika

Til stilistikasining birinchi turida, ya’ni fonetik stilistika, asosan, so‘zlashuv hamda badiiy uslublarda ko‘proq qo‘llaniladi hamda bu turda asosan, fonetik o‘zgarishlar hamda dubletlar misol bo‘la oladi. Bundan tashqari fonetik stilistikada stilistik vosita qo‘llangan birikma tarkibidagi so‘zlarda kuzatiladi. “umulduruq”, “jirkinma”, “ozoinma” kabi so‘zlar fonetik stilistikaga misol bo‘ladi.

Bu stilda ishlatiladigan faol so‘zlar lug‘at tarkibining asosiy qismini tashkil etadi. Bunday so‘zlar uyda, ko‘chada, ishxonada, to‘y-tomoshada ishlatiladi. Masalan, salbiy bo‘yoqdorlikka ega bo‘lgan so‘z kalla, jinqarcha, bashara kabi so‘zlar misol bo‘lsa, kallasi kapaday birikmasida metafora qo‘llanilgan hamda til stilistikasining ushbu turiga misol bo‘ladi.

Grammatik stilistikada ritorik so‘roq gaplar, so‘roq mazmuni ifodalaniladigan darak gaplar , his-hayajon gaplar ko‘plab ishlatiladi. Misol tariqasida: gapirgan bo‘ldi, ovqatdan tatigan bo‘ldi, gapga quloq solgan bo‘ldi kabi ifodalar so‘zlashuv uslubida qo‘llanilgan bo‘lib, metafora kabi stilistik vosita qo‘llangan.

Stilistik vositalar ekspressiv-stilistik vositalarni bildirish bilan bir qatorda, nutq uslubida bir qancha stilistik vositalar ham qo‘llanilib, ular ma’noning yanada ta’sirchanligi, bo‘yoqdorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Кожина М.Н. Стилистика русского языка. – М.:1997.
2. Mamatov A.E Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. Doktorlik dissertatsiyasi. -T.:1991.
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – T.: “Universitet”. 2006.
4. Sultonsaidova S., Sharipova O‘. O‘zbek tili stilistikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2009.
5. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo‘ng‘urov R., Rustamov H., O‘zbek tili stilistikasi. –T.: “O‘qituvchi”, 1983.